

XORIJIY TILLARNI O'RGANISHDA SUN'IY INTELLEKTNING ROLI

Maxmanabiyeva Aziza Mels qizi
O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti
Filologiya va tillarni o'qitish (Xitoy tili)

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining xorijiy tillarni o'qitish jarayoniga ta'siri, ularning interfaol ta'lim metodikalariga integratsiyasi hamda samaradorligini oshirishdagi roli tahlil qilingan. Sun'iy intellekt asosida ishlovchi mobil ilovalar, virtual yordamchilar, chat-botlar va moslashtirilgan o'quv platformalari orqali ta'lim oluvchilarning til o'rganishdagi motivatsiyasi va faolligi ortayotgani ilmiy asosda yoritilgan. Maqolada AI texnologiyalaridan foydalanishda interfaollik, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, real vaqtli tahlil va avtomatik baholash kabi ilg'or metodlar tahlil qilinadi. Xorijiy tillarni o'rgatishda zamonaviy raqamli vositalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, xorijiy til, interfaol ta'lim, chat-bot, adaptiv o'qitish, raqamli ta'lim, til o'rganish texnologiyalari.

Bugungi globallashuv davrida xorijiy tillarni o'rganish zarurati keskin ortib bormoqda. Bunda sun'iy intellekt texnologiyalari asosida yaratilgan o'quv vositalari til o'rgatish jarayoniga innovatsion yondashuv olib kirib, o'quvchilar uchun individual, moslashtirilgan va interfaol ta'lim imkoniyatini yaratmoqda. Ushbu maqolada AI texnologiyalari yordamida xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy usullari tahlil qilinadi.

Sun'iy intellekt tushunchasi dastlab 1950-1970-yillar oralig'ida shakllangan bo'lib, bugungi kunda eng dolzarb texnologik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. 1970-yillardan 2010-yillargacha bo'lgan davrda o'z-o'zini boshqaradigan mexanik qurilmalar rivojlanishi sun'iy intellekt atamasining jahon miqyosida ommalashishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, mashinalar orqali bilimlarni o'zlashtirish g'oyasi tobora keng yoyila boshladi. Hozirgi kunda sun'iy intellekt sohasida turli yo'nalishlarda ishlanmalar olib borilmoqda va bu sohaning ahamiyati sezilarli darajada ortmoqda.

Sun'iy intellektning asosiy afzalliklaridan biri – u ma'lum parametrlarga moslashishi va ilgari faqat insonlar bajara oladigan murakkab vazifalarni bajarishga qodirligidir. Bugungi kunda sun'iy intellekt kompyuter shaxmat dasturlaridan tortib, o'zini boshqaradigan avtomobillar, chuqur o'rganish (deep learning) va tabiiy tilni qayta ishlash (natural language processing) kabi texnologiyalar asosida faol rivojlanmoqda. Bu orqali katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash va tahlil qilish imkoniyatlari yaratilmoqda.

Internet butun dunyoga kirib borib, har bir sohaning ajralmas qismiga aylangan. Internet orqali turli murakkab dasturlar ishlaydi va aynan mana shu dasturlarni ishlab chiqish sun'iy intellekt asosida amalga oshirilmoqda. Sun'iy intellekt deb, ilgari faqat inson miyasiga xos bo'lgan ta'lim olish, mantiqiy fikrlash va nutq hosil qilish kabi jarayonlarni endilikda kompyuterlar orqali bajarishga qodir zamonaviy texnologik dasturlar majmuasini atash mumkin.

Bugungi kunda xorijiy til o'qitish tizimi jadal rivojlanmoqda va zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa sun'iy intellekt (SI), bu jarayonni yanada takomillashtirishda katta ahamiyat kasb etmoqda. O'qituvchilar va o'quvchilar uchun yangi imkoniyatlarni yaratadigan SI texnologiyalari, o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashish imkonini berib, o'qitish metodlarini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Sun'iy intellekt yordamida o'quvchilar til o'rganishda yanada samarali va tezroq rivojlanish imkoniga ega bo'lishadi. Xorijiy tilni o'rganish jarayonidagi xatolarni aniqlash, talaffuzni tahlil qilish, grammatika va leksikani yaxshilash kabi jarayonlar sun'iy intellekt tomonidan avtomatik ravishda amalga oshirilishi mumkin, bu esa o'quvchilarga tez va samarali o'rganish imkoniyatini yaratadi.¹¹⁷

Yoshlarning chet tillarini o'rganishga bo'lgan qiziqishini doimiy saqlab qolish uchun sun'iy intellekt asosidagi dasturlar motivatsion elementlardan — masalan, ballar yig'ish, medallar bilan mukofotlash va reyting jadvallarini shakllantirish kabi gamifikatsiya usullaridan keng foydalanadi. Bunga misol sifatida Lingvist yoki Quizlet platformalarini keltirish mumkin. Bu tizimlar orqali o'quvchilar murakkab topshiriqlarni bajarish jarayonida do'stlari bilan raqobatlashib, o'z natijalarini solishtiradilar va tahlil qiladilar.

Shuningdek, sun'iy intellekt foydalanuvchining psixologik holatini hisobga olib, u charchagan yoki e'tiborini yo'qotgan hollarda osonroq vazifalarni taklif qiladi. Virtual haqiqat (VR) texnologiyalari esa o'quvchilarga tilni haqiqiy hayotga yaqin muhitda qo'llash imkonini beradi. Masalan, Mondly VR ilovasi foydalanuvchini virtual restoran, sayohat yoki ish suhbatiga o'xshash ssenariylar ichiga joylashtiradi.

AI yordamida foydalanuvchining talaffuzi tahlil qilinib, uning to'g'riligi aniqlanadi. Augmented Reality (AR) texnologiyalari orqali esa atrofdagi predmetlarni til bilan bog'lash imkoniyati yaratiladi — masalan, o'quvchi stolga ishora qilganda, qurilma "table" deb aytadi, bu esa lug'atni vizual tarzda o'zlashtirishga yordam beradi.

Shuningdek, chat-botlar (masalan, Replika, ELSA Speak) yordamida o'quvchilar chet tilida muloqot qilishni mashq qiladilar. Ushbu sun'iy intellekt tizimlari foydalanuvchining

¹¹⁷ Alammar, A., et al. (2022). Artificial Intelligence in Education: A Review on Natural Language Processing in Language Learning. Journal of Educational Technology & Society.

nutqini tahlil qilib, sintaksis, talaffuz va mazmun xatolarini aniqlaydi va darhol to'g'ri variantlarni taklif etadi. Botlar turli mavzular — kundalik hayot, madaniyat, ilm-fan kabi sohalarida ham muloqot qilish imkonini beradi.

Bundan tashqari, AI vositalari inson ishtirokisiz yozma ishlarni tahlil qilib, imlo va uslubiy xatolarni aniqlashda foydalidir. Masalan, Writing Mentor dasturi insho yoki esse yozishda grammatik kamchiliklarni ko'rsatadi va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar beradi. Nutqni baholovchi Speechling kabi ilovalar esa talaffuzni aniq tahlil qilib, fonetik xatolar ustida ishlashga imkon yaratadi.

Sun'iy intellekt asosidagi bu platformalar turli darajadagi yoshlar uchun moslashtirilgan, shaxsiy o'quv yo'nalishlarini yaratish orqali ularning individual ehtiyojlarini qondira oladi.

Sun'iy intellekt asosidagi tizimlar o'quvchilarning bilim olish jarayonini real vaqt rejimida kuzatib boradi va ularning individual ehtiyojlariga mos ravishda fikr-mulohazalar taqdim etadi. Bunday tizimlar nafaqat o'quvchining xatolarini aniqlaydi, balki bu xatolarning sabablari haqida ham tushuntirish beradi. Shu yo'l bilan har bir o'quvchining kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi hamda individual tahlil asosida maxsus tavsiyalar shakllantiriladi. Bu jarayon o'quvchiga o'zini rivojlantirish va ijobiy natijalarga tezroq erishish imkonini beradi.

Mazkur texnologiya yordamida o'quvchilar o'z kamchiliklarini anglaydi va bu sohalarida ishlash orqali bilimlarini chuqurlashtiradi. Bu usul nafaqat til o'rganishga, balki o'zlashtirish jarayonining umumiy sifatini oshirishga xizmat qiladi. Sun'iy intellektga asoslangan innovatsion ta'lim resurslari til o'rganishni qiziqarli va samarali shaklga keltiradi. Jumladan, interaktiv videolar, o'yinlar, virtual darslar, onlayn testlar, audio kitoblar kabi vositalar o'quvchilarga keng imkoniyatlar yaratadi.

Shuningdek, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari orqali til o'rganish amaliyotga yaqin muhitda amalga oshiriladi. Bu esa o'quvchilarga o'rganayotgan tilni real hayotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Umuman olganda, sun'iy intellekt yordamida xorijiy til o'qitish yanada samarali, qiziqarli va har bir o'quvchining shaxsiy ehtiyojlariga moslashtirilgan tarzda tashkil etiladi. Bu texnologiyalar orqali o'quvchilar ta'lim jarayonida yuqori natijalarga erishishlari mumkin.

Shuni ham aytish joizki, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda o'qituvchining darsni interfaol, qiziqarli va mazmunli tarzda tashkil etishi muhim ahamiyatga ega. Bunga erishish uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar va didaktik o'yinlar muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, axborotkommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan oqilona foydalanish dars jarayonini yanada boyitishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish orqali o'qituvchilar nafaqat darsni samarali tashkil etishlari, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, xatolarini tahlil qilish va

ularni tuzatish ko'nikmalarini ham rivojlantirishlari mumkin. Masalan, "Kim tezroq?" metodini sun'iy intellekt yordami bilan rolli o'yin shaklida tashkil etish mumkin. Unda o'quvchi berilgan misollarni yechib, har bir to'g'ri javob evaziga ma'lum bir masofaga odimlaydi. Agar javob noto'g'ri bo'lsa, sun'iy intellekt uni to'xtatadi va xatoni ko'rsatib, qayta tahlil qilishga imkon beradi. Bu o'yin shaklidagi metod o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini kuchaytiradi va darsni jonlantiradi.

Shuningdek, "Uyingni top" metodi orqali o'quvchilarning shakllar, sonlar yoki boshqa mavzulardagi bilimlari sinovdan o'tkaziladi. Sun'iy intellekt noto'g'ri joylashtirilgan elementlarni aniqlab, o'quvchiga ularni to'g'ri joyiga qaytarish imkoniyatini beradi. Bu usul o'quvchilarda xatoni anglash, uni tuzatish va muammoni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O'qituvchi sun'iy intellekt vositasida topshiriqlarni avtomatik baholash tizimlarini qo'llab, natijalarni elektron ko'rinishda olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshiribgina qolmay, o'qituvchining vaqtini ham tejaydi. Natijada, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishi ortadi, o'rganish jarayoni esa oson va tushunarli bo'ladi.

Shuningdek, zamonaviy innovatsion texnologiyalar ta'lim sohasida, ayniqsa, chet tillarini o'qitishda tub o'zgarishlar yasadi. Ushbu texnologiyalar til o'rganish samaradorligini oshirish, talabalarni faolroq jalb etish hamda interaktiv va zamonaviy ta'lim tajribasini yaratishda keng imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Masalan, Duolingo, Babbel va Rosetta Stone kabi platformalar foydalanuvchilarga individual o'rganish usullariga moslashtirilgan darslar, lug'at va grammatikaga oid mashqlarni taklif etadi. Bunday platformalar o'yin elementlari va intervalgacha takrorlash usullaridan foydalanib, o'rganish jarayonini yanada qiziqarli qiladi. Shu bilan birga, VR va AR texnologiyalari yordamida o'quvchilar tilni real kontekstda o'rganish imkoniga ega bo'ladilar — ular virtual muhitda mashq qilishlari, turli rolda ishtirok etishlari va virtual belgilar bilan muloqot qilish orqali eshitish hamda so'zlashuv ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Memrise, HelloTalk va Tandem kabi mobil ilovalar esa foydalanuvchilarga istalgan joyda til ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Bu ilovalar, odatda, nutqni aniqlash texnologiyasi, chatbotlar orqali suhbat amaliyoti va flesh-kartalar yordamida so'z boyligini oshirish funksiyalarini o'z ichiga oladi. iTalki va ConversationExchange kabi veb saytlar esa til o'rganayotganlarni ona tili so'zlashuvchilari bilan bog'lab, bevosita muloqot qilish, fikr almashish va madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, SayBot va Busuu kabi sun'iy intellekt asosidagi platformalar o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashgan, ularning kuchli va zaif tomonlarini

hisobga olgan holda moslashtirilgan dars rejalari va shaxsiylashtirilgan fikr-mulohazalar taqdim etadi.

GPT asosidagi sun'iy intellekt chatboti til o'rganish sohasida o'ziga xos va samarali imkoniyatlarni taqdim etadi. U real hayotdagi suhbatlarni taqlid qila olishi hamda tezkor fikr-mulohaza (feedback) berishi bilan til ko'nikmalarini mashq qilishda qulay vosita sifatida ajralib turadi. Bu texnologiya o'qituvchilarga raqamli dunyoda ulg'ayayotgan o'quvchilarning ehtiyojlariga mos, interaktiv va qiziqarli dars muhitini yaratish imkonini beradi.

Xorijiy til o'rgatishda sun'iy intellektni qo'llash, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi va ishtirokini kuchaytiruvchi yangi yondashuvlarni yuzaga keltirmoqda. Har bir o'quvchiga individual yondashish imkoniyati esa til o'rganish jarayonini yanada samarali qilishga xizmat qiladi.

Sun'iy intellektning moslashuvchan algoritmlari yordamida o'quvchining duch kela yotgan qiyinchiliklari aniqlanib, ularga mos resurslar va yechimlar taklif qilinadi. Bu yondashuv har bir o'quvchining bilim darajasiga muvofiq dars materiallarini taqdim etib, yodda saqlash va faol ishtirokni oshiradi.

Shuningdek, sun'iy intellekt asosida olib boriladigan tahlillar orqali o'qituvchilar o'quvchilarning o'zlashtirish holatini yaxshiroq tushunishlari mumkin. Bu esa ta'lim strategiyasini yanada samarali rejalashtirish va individual yondashuvni takomillashtirish imkonini beradi.

O'yin elementlari va interaktiv vositalar bilan boyitilgan sun'iy intellektli ta'lim mazmuni o'quv jarayonini jonlantiradi, bu esa o'quvchilarda yanada yuqori motivatsiya va faol ishtirokni shakllantiradi.

Ya'ni, jadal sur'atda rivojlanayotgan axborot texnologiyalari ta'lim sifatining ham mutanosib ravishda yuksalishiga sabab bo'lmoqda. Har bir maktab va sinfda sun'iy intellekt asosida yaratilgan ko'rgazmali vositalarning joriy etilishi o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularda fanlarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi. Zamonaviy o'qituvchi esa bu imkoniyatlardan foydalangan holda, talimda yuqori natijalarga erisha oladi.

Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari an'anaviy dars jarayonidagi cheklovlarni yo'qotib, o'quvchilarga istalgan joyda va vaqtda ta'lim mazmuniga erkin kirish imkonini beradi. Bunday moslashuvchanlik, ayniqsa, til o'rganishda muhim bo'lgan uzluksiz mashq qilish va amaliyot olib borishga sharoit yaratadi. Bundan tashqari, SI vositalari o'qituvchilarga o'z metodikasini moslashtirish va o'quvchilarning qo'shimcha yordamga muhtoj jihatlarini aniqlashda ko'maklashadi.

SI tizimlari, shuningdek, baholash jarayonida va ijodiy ishlarga tahliliy fikrlar berish imkonini ham yaratadi. Bu esa o'quvchilarning og'zaki va yozma ko'nikmalarini

rivojlantirishga, xatolar ustida ishlashga va takomillashtirish bo'yicha takliflar olishga xizmat qiladi. Bu texnologiya o'qituvchilarning yukini biroz kamaytirib, ayniqsa, tajriba orttirayotgan yosh pedagoglarga amaliy yordam bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, SI texnologiyasi o'yin elementlarini tatbiq etish orqali xorijiy tilni o'rganishni yanada qiziqarli va jalb etuvchi holga keltiradi. Bu elementlar o'quvchilarning shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlariga moslashtirilishi mumkin bo'lib, ularning darslardagi faolligini oshiradi. Ta'limda SI va o'yinlashtirishning integratsiyasi o'qitish jarayoniga yangicha yondashuv olib kiradi, biroq bu yondashuvning afzallik va cheklovlarini chuqur tahlil qilish zarur. Shuning uchun o'qituvchilar ushbu texnologiyalarni tanqidiy baholab, ularning imkoniyatlarini to'g'ri tushunishlari lozim.

Xulosa qilib aytganda, Sun'iy intellekt xorijiy tillarni o'rgatish jarayoniga yangi sur'at, moslashuvchanlik va interfaollik olib kirmoqda. U o'qituvchiga yordamchi vosita sifatida xizmat qilib, o'quvchilar uchun esa mustaqil, shaxsiylashtirilgan ta'lim muhitini ta'minlaydi. Yaqin kelajakda bu texnologiyalarning yanada chuqur integratsiyasi til o'rganish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alammari, A., et al. (2022). Artificial Intelligence in Education: A Review on Natural Language Processing in Language Learning. Journal of Educational Technology & Society.
2. Kukulska-Hulme, A. (2020). Mobile-Assisted Language Learning with AI.
3. ReCALL Journal.
4. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Center for Curriculum Redesign.
5. Duolingo Blog (2023). How AI personalizes language learning.
6. Yang, J., & Mei, B. (2021). A Systematic Review of Artificial Intelligence Applications in Foreign Language Education. Educational Research Review.
7. Chien, S., & Lin, Y. (2020). Using VR for Foreign Language Acquisition: An Innovative Approach to Language Teaching. Journal of Educational Computing Research.
8. ELSA Speak. (2021). The Role of AI in Pronunciation Training and Language Fluency. ELSA Speak Blog.